



2021- yil yanvar-fevral oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 581,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 101,9 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxonalar va
mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yilning yanvar-fevral oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 77,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan oʻsish surʻati 229,0 % ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,4 % punktga koʻpayib, 13,4 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Taxiatoş tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 64,7 %, yoki 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 426,2 %), Qoʻngʻirot (ulushi 36,3 %, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 91,7 %), va Nukus shahri (ulushi 15,9 %, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 716,3 %)ga toʻgʻri keldi.



64,7

Taxiatoş

36,3

Qoʻngʻirot

15,9

Nukus sh.



2021- yil yanvar-fevral

QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi



2021- yilning yanvar-fevral oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **68,9 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **96,9%** ni tashkil etgan holda **400,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, % da




Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri 175,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 76,6 %, To'rtko'l tumani (35,4 mlrd. so'm, ulushi 72,4 %), Qo'ng'iro't (27,5 mlrd. so'm, ulushi 52,4 %) va Mo'ynoq (20,8 mlrd. so'm, ulushi 89,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 17,7 % ni tashkil etdi yoki 102,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan o'sish sur'ati 82,5 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **73,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 508,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **12,6 %** va **87,4 %** ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-fevral

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



2021- yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	581,5	101,9	100,0
Nukus sh.	228,4	114,7	39,3
tumanlar:			
Amudaryo	18,9	93,1	3,2
Beruniy	31,4	92,4	5,4
Bo'zotov	8,2	97,4	1,4
Qorao'zak	7,1	97,5	1,2
Kegeyli	13,0	97,5	2,2
Qo'ng'iro't	52,3	91,5	9,0
Qonliko'l	8,8	91,3	1,5
Mo'ynoq	23,3	94,9	4,0
Nukus	28,0	87,5	4,8
Taxiatosh	26,8	129,4	4,6
Taxtako'pir	11,5	97,4	2,0
To'rtko'l	49,0	103,4	8,4
Xo'jayli	36,4	80,3	6,3
Chimboy	9,0	94,0	1,6
Shumanoy	6,6	88,4	1,1
Ellikqal'a	22,8	99,0	4,0

2021- yil yanvar-fevral

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

67,3 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,3 % i yoki **391,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **59,9** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 77,0 % ni tashkil etdi.

77,0 %

57,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **229,9** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 57,3 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **101,5** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 98,7 % ni tashkil etdi.

98,7 %

Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yil yanvar-fevral

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **9,0 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,7 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,5 %** punktga kamayib, **64,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020-yilning yanvar-fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga kamayib, **26,3 %** ni tashkil etdi.





Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **28,5 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **20,7 %** punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,5 %** (**20,7 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




2020- yil yanvar-fevral

2021- yil yanvar-fevral

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **4,1 %** punktga kamaydi va **16,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **83,8 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **4,1 %** punktga ko'paydi.





Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-fevral oyida


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	581,5	77,8	400,9	102,8
Nukus sh.	228,4	36,2	175,2	17,0
tumanlar:				
Amudaryo	18,9	0,2	12,0	6,7
Beruniy	31,4	0,1	14,0	17,3
Bo'zotov	8,2	0,1	7,3	0,8
Qorao'zak	7,1	0,1	6,2	0,8
Kegeyli	13,0	1,4	9,1	2,5
Qo'ng'iro't	52,3	18,9	27,5	5,9
Qonliko'l	8,8	0,1	6,3	2,4
Mo'ynoq	23,3	0,6	20,8	1,9
Nukus	28,0	0,4	20,1	7,5
Taxiatosh	26,8	17,4	7,9	1,5
Taxtako'pir	11,5	0,0	10,4	1,1
To'rtko'l	49,0	0,4	35,4	13,2
Xo'jayli	36,4	0,9	21,9	13,6
Chimboy	9,0	0,1	5,8	3,1
Shumanoy	6,6	0,0	5,2	1,4
Ellikqal'a	22,8	0,9	15,8	6,1


2021- yil yanvar-fevral

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining respublikadagi ulushi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri – 39,3 %, Qo'ng'iro't tumani - 9,0 % va To'rtko'l tumani - 8,4 % ga to'g'ri keldi.



2021- yil yanvar-fevral

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91

2021- yil yanvar-fevral

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**